Dunyoning eng yirik kimyo kompaniyalari avtoulovlarning plastik qismlarini qayta ishlash bo‘yicha tajribani ishga tushiradi

// 26 February 2025 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/dunyoning-eng-yirik-kimyo-kompaniyalari-avtoulovlarning-plas



Global Impact Coalition koalitsiyasi (Jeneva, Shveysariya) avtomobil plastik qismlarini qayta ishlashning texnik-iqtisodiy asoslarini tayyorlaydi. 2025 yilning mart oyida KlaasBoer, Reyond va Steinert dastlabki 100 ta avtomobilni demontaj qilishni, uning qismlarini maydalab, ularni o‘n turdagi plastikka ajratishni boshlaydi. Pilot loyiha yetti oydan to‘qqiz oygacha davom etishi kutilmoqda.

Kuzov qismlari, faralar va chiroqlar, dvigatel qismlari, sovutish tizimlari va ichki qismlarni (qopqoqlar, rul g‘ildiraklari, asboblar paneli va boshqalar) qayta ishlash rejalashtirilgan. Olingan polipropilen, poliamidlar, poliuretan, polikarbonat, polimetilmetakrilat, yuqori zichlikdagi poliyetilen va termoelastoplastlar kabi polimer fraksiyalar yettita kimyo zavodiga yetkazib beriladi va ularga kimyoviy ishlov beriladi.

Global Impact koalitsiyasiga 2020 yilda Davosdagi Jahon iqtisodiy forumida asos solingan edi. Uning tarkibiga BASF, Covestro, LyondellBasel, Mitsubishi Chemical, Sabic, LG Chem va boshqa kompaniyalar kiradi. Uyushma "2050-yilgacha kimyo sanoatini iqlim jihatidan neytral holga keltirishni" maqsad qilgan.

Yevrostat ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida har yili o‘rtacha 5 millionga yaqin eski avtomobillar foydalanishdan chiqariladi. Ulardagi plastik va elastomerlarning tarkibi avtomobil umumiy

og‘irligining to‘rtdan bir qismini tashkil qilishi mumkin.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati